


2020-yil 1-mart holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2020-yilning 1-mart holatiga 45 902 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22,2 foizga o'sgan. Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 7 977 ta (25,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 39 856 tani tashkil etgan.




Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 25,9 % savdo, 19,6 % sanoat, 11,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari, 8,0 % dan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar va qurilish, 3,4 % tashish va saqlash, 1,5 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,4 % axborot va aloqa hamda 21,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi


(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)

	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	01.03.2019 yil	4 099 ta
		01.03.2020 yil	5 096 ta
	Sanoat	01.03.2019 yil	7 241 ta
		01.03.2020 yil	8 994 ta
	Qurilish	01.03.2019 yil	2 872 ta
		01.03.2020 yil	3 652 ta
	Savdo	01.03.2019 yil	8 989 ta
		01.03.2020 yil	11 866 ta
	Tashish va saqlash	01.03.2019 yil	1 286 ta
		01.03.2020 yil	1 557 ta
	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	01.03.2019 yil	2 990 ta
		01.03.2020 yil	3 663 ta
	Axborot va aloqa	01.03.2019 yil	529 ta
		01.03.2020 yil	627 ta
	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	01.03.2019 yil	602 ta
		01.03.2020 yil	701 ta
	Boshqa turlar	01.03.2019 yil	8 949 ta
		01.03.2020 yil	9 746 ta

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)



Hududlar kesimida ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'p Zangiota (5 158 ta), Qibray (4 429 ta), Toshkent (3 348 ta), Yuqorichirchiq (2 486 ta) tumanlari va Angren shahar (2 816 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Ohangaron (1 159 ta), Piskent (1 174 ta), Oqqo'rg'on tumanlari (1 219 ta) hamda Ohangaron shahrida (1 017 ta) korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 39 859 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 7 977 ta (25,0 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'p Zangiota (4 452 ta), Qibray (3 697 ta), Toshkent (2 842 ta), O'rtachirchiq (2 255 ta), Yangiyo'l (2 216 ta) tumanlari va Chirchiq (2 258 ta), Angren (2 242 ta), shaharlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Bo'ka (954 ta), Ohangaron (1 018 ta), Oqqo'rg'on (1 054 ta), Piskent (1 084 ta) tumanlari hamda Ohangaron (902 ta) korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)


2020-yil yanvar-fevral oylarida 1 641 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilning shu davriga nisbatan 25,4 % ga kam tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni o'sish dinamikasi, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Zangiota (210 ta), Qibray (136 ta), Toshkent (116 ta), O'rtachirchiq (114 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Piskent (35 ta), Chinoz (36 ta), Bekobod (44 ta) tumanlari va Ohangaron (36 ta), Yangiyo'l (46 ta) shaharlarida korxona va tashkilotlarning tashkil etilish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (614 ta), sanoat (291 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari (194 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (155 ta) hamda qurilish (143 ta) sohalariga va eng kam esa tashish va saqlash (37 ta), axborot va aloqa (24 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (22 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Tijorat korxonalar

(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)

2020-yil 1-mart holatiga 34 248 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar –24 443 ta, xususiy korxonalar –6 213 ta, oilaviy korxonalar –3 000 ta, unitar korxonalar – 301 ta, aksiyadorlik jamiyatlar – 50 ta va boshqalar 241 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning ulushi, foizda

(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)





Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-mart holatiga 27 873 tani tashkil etib, ulardan 24 443 tasi yoki 87,7 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 5 968 taga yoki 32,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida 1 227 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 254 taga kam tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning soni, birlikda

Iqtisodiy faoliyat turlarnomi	01.03.2020 yil		2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	
Jami	27 873	24 443	1 227
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari	3 970	3 504	160
Sanoat	6 352	5 590	202
Qurilish	2 963	2 598	134
Savdo	7 747	6 812	472
Tashish va saqlash	1 379	1 206	37
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 928	1 628	91
Axborot va aloqa	366	292	18
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	375	354	18
Boshqa turlari	2 793	2 459	95



Xususiy korxonalar

Ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni 2020-yilning 1-mart holatiga 7 977 tani tashkil etib, ulardan 6 213 tasi yoki 77,9 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 541 taga yoki 9,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida 125 ta xususiy korxonalar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 327 taga kam tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xususiy korxonalarning soni, birlikda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.03.2020 yil		2020-yil yanvar- fevral oylarida yangi tashkil etilgan
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	
Jami	7 977	6 213	125
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari	537	381	4
Sanoat	1 342	1 060	12
Qurilish	584	440	6
Savdo	3 109	2 454	68
Tashish va saqlash	130	94	
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 031	792	18
Axborot va aloqa	193	135	5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	174	159	2
Boshqa turlari	877	698	10



Oilaviy korxonalar

Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-mart holatiga 3 337 tani tashkil etib, ulardan 3 000 tasi yoki 89,9 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1 292 taga yoki 63,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida 231 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17 taga ko'p tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha oilaviy korxonalarning soni, birlikda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.03.2020 yil		2020-yil yanvar- fevral oylarida yangi tashkil etilgan
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	
Jami	3 337	3 000	231
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari	393	332	17
Sanoat	1 120	1 012	74
Qurilish	22	20	3
Savdo	887	821	72
Tashish va saqlash	25	21	
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	682	607	46
Axborot va aloqa	14	10	
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	15	14	1
Boshqa turlari	179	163	18

Kichik korxona va mikrofirmalar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)


2020-yil 1-mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 33 980 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 29,5 % ga oshgan.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)

Hududlar nomi	Kichik korxona va mikrofirmalar soni	shundan:	
		kichik korxonalar	mikrofirmalar
Viloyat bo'yicha	33 980	31 826	2 154
Oqqo'rg'on	871	836	35
Ohangaron	840	795	45
Bekobod	901	865	36
Bo'stonliq	1 522	1 413	109
Bo'ka	750	708	42
Quyichirchiq	1 027	995	32
Zangiota	3 992	3 746	246
Yuqorichirchiq	1 894	1 752	142
Qibray	3 185	3 010	175
Parkent	1 650	1 587	63
Piskent	886	840	46
O'rtachirchiq	1 992	1 891	101
Chinoz	896	847	49
Yangiyo'l	1 913	1 806	107
Toshkent	2 557	2 387	170
Nurafshon sh.	929	866	63
Olmalik sh.	1 511	1 392	119
Angren sh.	1 872	1 709	163
Bekobod sh.	1 064	999	65
Ohangaron sh.	778	725	53
Chirchiq sh.	1 889	1 705	184
Yangiyo'l sh.	1 061	952	109


**2020-yil 1-mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona
va mikrofirmalarning umumiy sonidagi hududlarning ulushi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3 992 tasi (11,7 %) Zangiota, 3 185 tasi (9,4 %) Qibray, 2 557 tasi (7,5 %) Toshkent, 1 992 tasi (5,9 %) O'rtachirchiq, 1 913 tasi (5,6 %) Yangiyo'l, 1 894 tasi (5,6 %) Yuqorichirchiq tumanlari hamda 1 889 tasi (5,6 %) Chirchiq, 1 872 tasi (5,5 %) Angren shaharlari hissalariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 33 980 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 10 103 ta (29,7 %) - savdo, 7 712 ta (22,7 %) - sanoat, 4 305 ta (12,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3 104 ta (9,1 %) - qurilish, 3 019 ta (8,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 1 319 ta (3,9 %) - tashish va saqlash, 525 ta (1,6 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 447 ta (1,3 %) - axborot va aloqa, shuningdek 3 446 tasi (10,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)



2020-yil yanvar-fevral oylarida 1 605 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 547 taga kam tashkil etilgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlar Zangiota (208 ta), Qibray (135 ta), Toshkent (115 ta) va O'rtachirchiq (113 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Piskent (33 ta), Chinoz (35 ta), Bekobod (44 ta) tumanlarida hamda Ohangaron (36 ta), Yangiyo'l (46 ta) shaharlarida tashkil etilgan.

**2020-yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona
va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa ularning eng ko'p soni savdoda – 614 ta, sanoatda - 291 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida - 194 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda - 155 ta hamda qurilishda - 143 ta tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda -37 ta, axborot va aloqada - 24 ta hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish - 21 ta tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-mart holatiga 3 337 tani tashkil etib, ulardan 3 000 tasi yoki 89,9 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 66,2 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalarni o'tgan yilga nisbatan soni, birlikda




Oilaviy korxonalarning soni to'g'risida ma'lumot (birlikda)

Hududlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Viloyat bo'yicha	3 337	3 000	231
Oqqo'rg'on	109	99	30
Ohangaron	65	55	1
Bekobod	39	35	5
Bo'stonliq	240	212	18
Bo'ka	57	42	3
Quyichirchiq	19	18	2
Zangiota	375	330	13
Yuqorichirchiq	295	278	29
Qibray	211	198	16
Parkent	270	259	13
Piskent	32	28	
O'rtachirchiq	327	320	25
Chinoz	115	101	11
Yangiyo'l	305	279	12
Toshkent	352	308	19
Nurafshon sh.	101	93	10
Olmalik sh.	70	62	3
Angren sh.	128	92	3
Bekobod sh.	44	41	6
Ohangaron sh.	58	53	5
Chirchiq sh.	20	18	3
Yangiyo'l sh.	105	79	4

Oilaviy korxonalarning o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning tumanlar kesimidagi soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 33,7 % yoki 1012 tasi sanoat, 27,4 % yoki 821 tasi savdo, 20,2 % yoki 607 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 11,1 % yoki 332 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,7 % yoki 21 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 20 tasi qurilish, 0,5 % yoki 14 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,4 % yoki 10 tasi axborot va aloqa hamda 5,4 % yoki 163 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning ulushi, %




Agarda, 2020-yil 1-mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning sonini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi – sanoat hamda savdoda, eng kami esa – sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Viloyat bo'yicha	231	100,0
Oqqo'rg'on	30	13,0
Ohangaron	1	0,4
Bekobod	5	2,2
Bo'stonliq	18	7,8
Bo'ka	3	1,3
Quyichirchiq	2	0,9
Zangiota	13	5,6
Yuqorichirchiq	29	12,6
Qibray	16	6,9
Parkent	13	5,6
Piskent		
O'rtachirchiq	25	10,8
Chinoz	11	4,8
Yangiyo'l	12	5,2
Toshkent	19	8,2
Nurafshon sh.	10	4,3
Olmaliq sh.	3	1,3
Angren sh.	3	1,3
Bekobod sh.	6	2,6
Ohangaron sh.	5	2,2
Chirchiq sh.	3	1,3
Yangiyo'l sh.	4	1,7

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning asosiy qismi Oqqo'rg'on (30 ta), Yuqorichirchiq (29 ta), O'rtachirchiq (25 ta), Toshkent (19 ta) va Bo'stonliq (18 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Ohangaron (1 ta), Quyichirchiq (2 ta), tumanlarida kam tashkil etilgan va Piskent tumanida oilaviy korxona tashkil etilishi kuzatilmadi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,0 % yoki 74 tasi sanoat, 31,2 % yoki 72 tasi savdo, 19,9 % yoki 46 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 7,4 % yoki 17 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari, 1,3 % yoki 3 ta qurilish, 0,4 % yoki 1 ta sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 7,8 % yoki 18 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil 1-mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 1 193 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 329 taga yoki 38,1 % ga o'sgan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Zangiota-145 ta (jamidagi ulushi 12,2 %), Qibray-120 ta (10,1 %), Yuqorichirchiq – 96 ta (8,0 %) tumanlari va Angren– 81 ta (6,8 %) shahrida tashkil etilgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Bo'ka 9 ta (0,8 %), Bekobod 10 ta (0,8 %), Oqqo'rg'on-11 ta (0,9 %), Piskent-15 ta (1,3 %) va Chinoz-19 ta (1,6 %) tumanlarida tashkil etilgan.




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning tumanlar kesimidagi soni, birlikda

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Toshkent viloyati	1 193	618	575
Oqqo'rg'on	11	5	6
Ohangaron	70	30	40
Bekobod	10	7	3
Bo'stonliq	43	25	18
Bo'ka	9	5	4
Quyichirchiq	44	26	18
Zangiota	145	72	73
Yuqorichirchiq	96	51	45
Qibray	120	62	58
Parkent	23	12	11
Piskent	15	9	6
O'rtachirchiq	78	41	37
Chinoz	19	11	8
Yangiyo'l	71	26	45
Toshkent	67	40	27
Nurafshon sh.	53	26	27
Olmaliq sh.	40	13	27
Angren sh.	81	56	25
Bekobod sh.	20	14	6
Ohangaron sh.	42	19	23
Chirchiq sh.	79	50	29
Yangiyo'l sh.	57	18	39

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yilning yanvar-fevral oyining yakuni bo'yicha xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 40 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 taga kam tashkil etilgan.


Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosan Zangiota (7 ta), Yuqorichirchiq, Quyichirchiq, Qibray (4 tadan) tumanlari va Nurafshon (6 ta) to'g'ri keladi. Bekobod, Piskent, Chinoz tumanlari va Angren, Bekobod, Ohangaron, Yangiyo'l shaharlarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar kuzatilmadi.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Turkiya Respublikasi rezidentlarining kapitali ishtirokida 11 ta, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi 9 tadan, Eron Islom Respublikasi 4 ta Afg'oniston Respublikasi 3 ta va boshqa davlatlar 16 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 21 tasi sanoat, 7 tasi savdo, 4 tasi qurilish, 3 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari hamda 1 tadan sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa va boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrarni yuritish bo'limi
Tel.: (71) 230-86-84